

## BAQLAJON O'SIMLIGINING KOLORADO QO'NG'IZIGA QARSHI KIMYOVIY KURASH CHORALARI

U.A.Isashova

*Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalari Instituti Dotsent*

N.A.Bekmurodova

*Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalari Instituti Magistrant*

**Annotatsiya:** Maqolada kolorado qo'ng'izining (*Leptinotarsa decemlineata Say.*) rivojlanish bosqichlari, baqlajon o'simligiga yetkazadigan zarari, qarshi kurash usullari, kuzatuv va tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda Andijon viloyati Jalaquduq tumani sharoitida baqlajon o'simlidagi kolorado qo'ng'iziga qarshi biologik samaradorligi yuqori bo'lgan kimyoviy preparatlar sinovdan o'tkazilib tadqiqot ishlari olib borildi.

**Kalit so'zlar:** Baqlajon, lichinka, g'umbak, qo'ng'iz, oligofag, fitofag

### CHEMICAL CONTROL MEASURES AGAINST COLORADO BEETLE IN EGGPLANT

**Abstract:** The article presents the stages of development of the Colorado potato beetle (*Leptinotarsa decemlineata Say.*), the damage it causes to the eggplant, methods of combating it, and the results of observation and research. In this case, in the conditions of Jalakuduk district of Andijan region, chemical preparations with high biological efficiency against Colorado potato beetle were tested and research work was carried out.

**Key words:** Eggplant, larva, sponge, beetle, oligophagous, phytophagous

### KIRISH

Baqlajon o'simligiga juda ko'plab zararkunanda va kasalliklar zarar keltiradi bular qatorida kolorado qo'ng'izi alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida kolorado qo'ng'izi 1-3 marta avlod berib rivojlanadi (Sh.T.Xo'jayev). Qo'ng'izlar oziqlangan dala sharoitida 20-60 sm chuqurlikda qishlab qoladi. Bahorda yer satxi 14-15°C gacha qizishi bilan qo'ng'izlar uchib chiqqa boshlaydi. Qo'shimcha oziqlangandan so'ng hasharotlar urchiydi va urg'ochi qo'ng'izlar o'simlik bargi orqasiga to'p-to'p qilib 18-20 tadan tuxum qo'yadi. Tuxumdan 5-7 kun ichida lichinka chiqadi va o'simlik bilan oziqlanib 16-34 kun ichida 4 marta po'st tashlab yerga tushadi va 5-15 sm chuqurlikda g'umbakga aylanadi. Ushbu oligofag zararkunanda o'simlikning butun o'suv davri davomida zarar keltiradi. Har bir tup baqlajon o'simligida 20-40 dona lichinka va qo'ng'iz mavjudligida barglar 50-100 % nobud bo'lishi mumkin. Bu esa hosilning 2-3 xatto 10 barobargacha kamayishiga olib keladi.

**Tadqiqot materiallari va uslublari:** Andijon viloyati Jalaquduq tumani "Shokirjon ota" fermer xo'jaligiga qarashli 0.1 hektar maydonda Baqlajon ekini ekib zararkunandalarini o'rgandik hamda ular orasidan ashaddiy zararkunanda turlarini aniqlab ularga qarshi uyg'unlashgan kurash usulini qo'lladik. Amalga oshirilgan har bir

ish ma'lum metodlar yordamida amalga oshirildi. Zararkunandalarning zichligini aniqlash uchun Sh.T.Xo'jaev, fitofaglarning zararlilik darajasi V.I.Tanskiy, baqlajon ekinida uchragan kolorado qo'ng'izi va ularning sistematik taxlili Aniqlagich (L.M.Kopaneva,1978) yordamida o'r ganildi. Tajriba dalasi xar 7 kunda kuzatib borildi, barg va novdalari ko'zdan kechirilib kuzatuv natijasida aniqlangan zararkunnadalar soni va turlari dala daftariga yozib borildi.

**Tadqiqot natijalari va ularning taxlili:** Biz baqlajon ekinini 12-mart kuni ek dik, o'simlikning o'suv davrida kolorado qo'ng'izi bilan zararlanishi kuzatildi. Tajriba samarasini hisoblash uchun har bir variantda kolorado qo'ng'izi lichinkalari bilan zararlangan 10 tupdan o'simlik tanlandi va zararkunandalar soni sanab borildi. Sanash kimyoviy preparat sepilguncha va dorilangandan keyin 3-7-kunlari, so'ngra har 7 kunda, o'suv davrining oxirigacha davom ettirildi. Tajriba uchun 2 turdag'i preparat tanlab olindi va uning samaradorligi andoza variantga nisbatan solishtirildi.(1-jadval) Tajriba davomida preparat sinalayotgan o'simlikning o'ziga, foydali hasharotlarga ko'rsatgan ta'siri ham kuzatildi va baholanib borildi.

$$C = \frac{Ab - Ba}{Ba} \times 100\%$$

Sinalayotgan preparatlarning biologik samaradorligini hisoblashda yuqorida keltirilgan Abbot formulasidan foydalanildi:

### Kolorado qo'ng'iziga qarshi qo'llanilayotgan kimyoviy preparatlar tarkibi va sarf me'yori

#### 1-jadval

Preparat	Ta'sir etuvchi muddasi	Sarf me'yori l/ga, kg/ga
Nazorat		-
Nestor 20% n.kuk	Deltametrin	0.6
Nurell-D 55% em.k	Sipermetrin	0.7
Genezis 30% s.d.g	Emamektin benzoat	0.1

#### Tadqiqot maydonida sinalangan kimyoviy moddaning Kolorado qo'ng'iziga ta'siri

#### 2-jadval

№	Preparat Nomi	Sarf me'yori l/ga, kg/ga	1 o'simlik-dagi qo'ng'izlar soni	ta Ishlov berilgandan qo'ng'izlar soni, dona	Biologik samaradorlik %			
					3- kun	7- kun	14- kun	14- kun
1	Nazorat (ishlov berilmagan)	25,2	22,3	39,8	53,4	-		
2	Nestor 20% n.kuk	0.6	24.3	19.6	14.2	5.4	77	
3	Nurell-D 55% em.k	0.7	25,8	17,9	9,7	3.2	87	
4	Genezis 30% s.d.g	0.1	25,2	19,8	10,9	1.8	92	

Tajriba maydonidagi kuzatuv olib borilayotgan Baqlajon o'simligiga zarar keltirayotgan Kolorado qo'ng'iziga qarshi ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan Nestor preparati , umuman dorilanmaydigan nazorat variant hamda tajriba variantlarida sinalayotgan Nurell-D , Genezis kimyoviy preparatlarini

qo'llaganimizda nazorat va andoza variantiga nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi. Xususan nazorat variantida kimyoviy kurash olib borilmaganligi sababli bu o'simlikda zararkunanda bilan zararlanish xolati juda yuqori bo'ldi va bu yerda biologik samaradorlik nolga teng bo'ldi. Andoza variantida esa ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan preparat Nestordan foydalanganimizda dastlab bitta o'simlikdagi zararkunandalarning o'rtacha soni 24.3 dona edi , kimyoviy preparat bilan ishlov berilgandan keying 3-kun 19.6, 7- kun 14.2, 14- kun 5.4 dona biologik samaradorlik esa tegishli ravishda 3-kun 33%, 7- kun 52% , 14- kun 77 % ni tashkil etdi. Keyingi tajriba variantlarimizdagi natijalar andoza variantiga nisbatan biologik samaradorligi tegishli ravishda ortib bordi. Uchinchi variantda Nurell-D kimyoviy preparatini qo'llaganimizda natijalar andoza variantimizga nisbatan quyidagi natijalarni berdi. Dastlab uchinchi variantdagi zararkunandalar o'rtacha soni 25.8 dona edi. Kimyoviy preparat bilan ishlov berilgandan so'ng uchinchi kun kuzatuvlarida zararkunandalar soni 17.9, 7-kun 9.7, 14-kun 3.2 dona va ushbu natjalarga tegishli ravishda biologik samaradorlik 3-kun 36%, 7-kun 60%, 14-kun 87% ga yetdi.

To'rtinchi variantimizda kimyoviy ishlov berishdan avval zararkunandalar o'rtacha soni 25.2 donani tashkil etdi. Ushbu so'ngi to'rtinchi variantimizda sinalayotgan Genezis kimyoviy preparati sinalganda zararkunandalar soni quyidagicha tasir qildi, 3- kun 19.8, 7-kun 10.9, 14-kun 1.8, biologik samaradorlik esa 3-kun 40%, 7- kun 70%, 14-kun esa 92 % ga yetdi.(2-jadval)

**Xulosa:** Bundan xulosa qilib aytganda bizning variantlarimiz ichida Genezis 30% s.d.g kimyoviy preparati Kolorado qo'ng'iziga qarshi qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng maqbul yechim hisoblanadi va boshqa variantlarimizga nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etganligini tajribada ko'rishimiz mumkin. Tajribada kimyoviy preparatlarning zararkunandalarga tasirini oshirishda kimyoviy ishlovnni kunning ikkinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki zararkunandalar kunning salqin paytida faol harakatlanib oziqlanadi. Zararkunandalarga qarshi kurashishda tashqi muhit omillarini to'g'ri hisobga olish tajribaning aniqligini yanada oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xo'jaev Sh.T., "O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari" Toshkent - 2015.
2. Xo'jaev Sh.T. "Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari" Toshkent 2013-yil.
3. Sheralev A., Ulmasboeva R.Sh. " Qishloq xo'jalik o'simliklarining karantini". O'qituvchi 2008
4. Murodov B.E., Sulaymonov O.A., Yaxyoev J.N. "O'zbekiston Respublikasida chegaralangan holda tarqalgan va chetdan kirib kelishi xavfi bo'lgan karantin zararkunandalar" uslubiy qo'llanma Toshkent - 2017.

- 
5. Kimsanboev X.X. va boshq.«O'simliklarni kimyoviy himoya qilish». Toshkent,  
«O'qituvchi», 1997.